O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"Iqtisodiyot" fakulteti

"Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi

Ro'yxatga olindi

№ 210

2022 yil "29" 08.

"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

dots. O.N.Bozorov

2022 yil "___" _____

# "IJTIMOIY SOHA IQTISODIYOTI"

fanidan

# *SILLABUS*

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 300000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| Ta'lim sohasi: | 310000 - Ijtimoiy va xulq-atvorga moyil fanlar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari uchun mo'ljallangan |

QARSHI – 2022 yil

*Ushbu fan sillabusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 28 iyundagi №11-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzilgan.*

*Tuzuvchilar:* *i.f.d., prof.S.N.Xamrayeva*
*i.f.f.d. (PhD) G.T.Samiyeva*

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasining **2022 yil “22” avgustdagi 01-son** yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasida **2022 yil “24” avgustdagi 01-son** yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil _____ _____ dagi __ son yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

**O’quv - uslubiy boshqarma boshlig’i** **dots. Sh.R.Turdiyev**

**“Iqtisodiyot” fakulteti uslubiy komissiyasi raisi:** **dots. A.B.Qurbonov**

**“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi mudiri:** **i.f.d., prof. S.N.Xamrayeva**

# FAN SILLABUSI
## QARSHI MUHANDISLIK- IQTISODIYOT INSTITUTI

## “IJTIMOIY SOHA IQTISODIYOTI” FANI SILLABUSI

| Fan (modul) kodi | O‘quv yili | Semestr | ECTS krediti |
|---|---|---|---|
| FORLAN26 | 2022-20223 | 4 | 5 |
| **Fan (modul) turi** | **Ta’lim tili** | | **Haftalik dars soati** |
| Tanlov fani | o‘zbek | | 5 |
| **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘u-lotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim** | **Jami yuklama** |
| Ijtimoiy soha iqtisodiyoti | 76 | 74 | 150 |

**Fan o‘qituvchisi haqida ma’lumot**

| **Kafedra nomi** | Innovatsion iqtisodiyot | | |
|---|---|---|---|
| **O‘qituvchilar** | F.I.SH. | Telefon nomeri | e-mail |
| **Ma’ruzachi** | Samiyeva Gulnoza Toxirovna | +99972791881 | **samiyeva gulnoza@gmail.com** |
| **Amaliy mashg‘ulot** | Samiyeva Gulnoza Toxirovna | +99972791881 | **samiyeva gulnoza@gmail.com** |
| **Laboratoriya mashg‘uloti** | Ko’zda tutilmagan | | |

### I. Fanning mazmuni

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya masalasi davlat siyosati markazida turadigan asosiy masalalardan biridir. Kuchli ijtimoiy siyosat respublika iqtisodiyotini isloh qilishning eng muhim tamoyillaridan biridir. Ijtimoiy sohani tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, xizmat ko’rsatish sohasi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyoti tajribasidan xorij kapitalini, xususan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish investitsiyalashda eng samarali vosita ekanligi ma’lum. Aynan chet el investitsiyalari mamlakatda iqtisodiy va texnologik yangilanish jarayonini harakatlantiruvchi omil bo’lib xizmat qiladi. Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoiti yaratib berish borasida mamlakatimiz oldida turgan maqsad va vazifalar hamda mintaqa va jahon bozorlarida ro’y berayotgan o’zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomil-lashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma-

larni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olingan[1].

***Fanni o'qitishdan maqsad*** – ijtimoiy soha iqtisodiyotini ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tamoyillarini o'rgatishdan iborat.

***Fanning vazifalari*** – ijtimoiy sohani boshqarishda davlatning o'rni; ijtimoiy sohada baholar va subsidiyalar; aholi turmush darajasini belgilash; kommunal xo'jalik tarmog'ini, ta'lim va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirishni; tibbiy xizmat va turizm iqtisodiyoti; aholini ijtimoiy himoyalash, nafaqa ta'minoti, sug'urta, mehnat bozori va bandlik muammolarini o'rganish.

**II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)**

Fan bo'yicha talabalarning bilimga, ko'nikma va malakasiga qo'yilgan talablar "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini, iqtisodiy vaziyatini, ularning ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini tahlildan o'tkazish usullari va vositalari haqida bilim olishlari, shuningdek, ijtimoiy soha tarmoqlari xizmat va mahsulotlariga talab va taklifni aniqlash uslubiyatini o'zlashtirish talablarini bilishi kerak;
- ijtimoiy sohani moliyalashtirish tizimining asosiy bo'g'inlarini sinflash haqida;
- soliqqa tortish prinsiplarini va soliq stavkalarini aniqlash haqida;
- o'rta va maxsus ta'limli mutaxassislarga talabni aniqlash; kommunal, maishiy xizmatlarga bo'lgan talabni aniqlash;
- aholini ijtimoiy muhofazalash yo'llarini belgilash ko'nikmalari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- ijtimoiy xizmatga bo'lgan ehtiyojini aniqlashni; bozor sharoitida ijtimoiy sohada nafaqa hisoblarini; ijtimoiy soha tarmoqlarni tartibga solish uslubiyatini; ijtimoiy ta'minot va nafaqa fondlarining ish faoliyativa hisob-kitob qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- ijtimoiy sohada tashqi savdo siyosati va valyuta kursini tartibga solish orqali to'lov balansi holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatish usullarini tavsiflab berish;
- ijtimoiy sohani rivojlantirishda ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak

**III. Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

***"Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" fani*** oliy ta'limning bakalavr ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalariga 4-semestrda o'qitiladi. Ushbu fan "Iqtisodiy nazariya", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Statistika", "Korxona iqtisodiyoti" fanlaridan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim va boshqa shu kabi fanlar bilan bevosita bog'liq. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan: mustaqil ishlar texnikasini va amaliyotini tayyorlash; ko'rgazmalar tashkil qilish, uslubiy qo'llanmalardan, internet va masofaviy o'qitishdan keng foydalanish; ochiq ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish; interaktiv uslublardan, konferensiya va muloqotlardan keng foydalanish talab etiladi.

[1]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 7 fevral, 8 fevral//Xalq so'zi.

***Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni*** Ijtimoiy soha tarmoqlarini iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha qonunlar, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning samarali usullarini joriy etish, ishlab chiqarish omillari asosida uning natijalarini asoslash, ijtimoiy sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tuzish va ular faoliyatini boshqarish, biznes va tadbirkorlik tamoyillarini o'rganish va ularga amal qilish qoidalarini belgilab berishni tashkil etadi. Shuning uchun ijtimoiy soha iqtisodiyoti tarkibini o'rganishga alohida talablar qo'yiladi. Ijtimoiy soha iqtisodiyotini mamlakatimizda samarali faoliyat ko'rsatishida rivojlantirishning ustuvor dasturlarini ishlab chiqish tizimining ajralmas bo'g'inidir.

**IV. Fanni o'qitishdagi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari**

Talabalarning "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti» fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'qitishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasi va o'quv-uslubiy majmuasi, keys – texnologiya, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar hamda Power Point va Excel kompyuter dasturlari va internet saytlaridan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruzalarni o'tishda elektron ma'ruzalardan, mavzularga mos multimediali slaydlar va videofilmlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

**V. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)**

| № | Mavzular | Qisqacha mazmuni | soat |
|---|---|---|---|
| 1 | **"Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" fanining mohiyati va xususiyatlari** | 1.1. Ijtimoiy sohaning roli, mohiyati va xususiyatlari. Ijtimoiy siyosat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari.<br>1.2. O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning maqsadi va asosiy mazmuni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ijtimoiy yo'naltirishning zaruriyati. O'zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish.<br>1.3. Ijtimoiy sohaga xos xususiyatlar. Xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash xususiyatlari. Ehtiyojlar turi.<br>1.4. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti. | 2 |
| 2 | **Ijtimoiy sohada baholar va subsidiyalar** | 2.1. Ijtimoiy sohada baholarning roli va ahamiyati<br>2.2. Tabiiy monopoliya va mukammal raqobat sharoitida ijtimoiy soha xizmatlariga baholarni tashkil qilish.<br>2.3. Narxlarni subsidiyalar orqali davlat tomonidan tartibga solish<br>2.4. Ijtimoiy sohada soliq siyosati, uning mazmun-mohiyati.<br>2.5. Soliqqa tortish mexanizmi va uning funksiyalari.<br>2.6. Pareto haqqoniylik vaziyati.<br>2.7. Turmush farovonligi nazariyasida aholi daromadlarini taqsimlash konsepsiyalari, ularning mohiyati. | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | **Uy-joy kommunal xo'jalik tarmog'i iqtisodiyoti** | 3.1. Uy-joy kommunal xo'jalik tarkibi. Respublika aholisi turmush samaradorligini oshirishda uy-joy, kommunal xo'jaligi xizmatining o'rni.<br>3.2. O'zbekiston Respublikasida uy-joy, kommunal xo'jalik tarmog'ini boshqarish tizimi. Tarmoqni rivojlanishini tartibga solishda mahalliy hokimiyat organlari rolining o'sishi.<br>3.3. Uy-joy, kommunal xo'jalik tarmog'ini moliyalashtirish tizimi, mahalliy budjetlarning ahamiyati.<br>3.4. Uy-joy xo'jaligi iqtisodiyoti. Uy-joy xo'jaligini tartibga solishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar. Kommunal korxonalar iqtisodiyoti.<br>3.5. Suv xo'jaligini tartibga solishda qo'llaniladigan natura, mehnat, qiymat ko'rsatkichlari. Iste'molchilarga sotiladigan suv hajmini aniqlash uslubiyati. Suv xo'jaliklari daromadlari va xarajatlarining aniqlanishi | 2 |
| 4 | **Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish** | 4.1. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ining ahamiyati va zaruriyati.<br>4.2. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish doirasiga kiradigan tarmoqlar. O'zbekistonda maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirishning iqtisodiy tahlili. Mahalliy maishiy xizmat korxonalarida raqobat muhitini yaratish.<br>4.3. Maishiy xizmat tarmog'ining barqaror rivojlanish vazifalari. O'zbekiston maishiy xizmat sohasiga bozor iqtisodiyotining ta'siri.<br>4.4. Maishiy xizmat sohasi joylarini xususiylashtirish jarayoni tahlili. Mulkchilik turlari bo'yicha aholiga pullik xizmatlarning taqsimoti.<br>4.5. O'zbekiston Respublikasida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini boshqarish tizimi. Tarmoqning moddiy-texnika bazasi xususiyatlari. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini tartibga solishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi.<br>4.6. O'zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirishda mavjud muammolar. Tarmoq faoliyatining samaradorligini va xizmatlar sifatini oshirish yo'llari. | 2 |
| 5 | **Ta'lim tizimini tartibga solish. Xalq ta'limini rivojlanishi** | 5.1. Ta'lim to'g'risidagi Qonun va uni qabul qilish zaruriyati, maqsadi va vazifalari.<br>5.2. Umumiy ta'limni moliyalashtirish manbalari. Nobudjet manbalaridan foydalanish imkoniyatlari. Ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda mahalliy budjetning roli.<br>5.3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limini rivojlantirish tahlili. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zaruriyati. | 4 |
| | | 5.4. Pedagogik kadrlarni malakasini oshirish vazifalari. Umumiy ta'limni tartibga solishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash uslubiyati. | |
| 6 | **Oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlanishi** | 6.1. Oliy o'quv ta'limi rivojlanishi vazifalari. Respublikada bakalavr va magistrlarni tayyorlash holati.<br>6.2. Oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirishda budjet va nobudjet manbalari. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi, uni takomillashtirish ahamiyati.<br>6.3. Oliy va o'rta muxsus ta'limni tartibga solishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisoblash uslubiyati. | 4 |
| 7 | **Tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlanishi va iqtisodiyoti** | 7.1. O'zbekistonda tibbiyotni rivojlantirish vazifalari. Tibbiy xizmatlarning hozirgi holati tahlili. Tibbiy xizmatlarni rivojlantirishni takomillashtirish zaruriyati.<br>7.2. Respublikada Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi.<br>7.3. Tibbiyotda sug'urta tushunchasi, uning mohiyati. O'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.<br>7.4. Tibbiyotni tartibga solishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisoblash uslubiyati, kasalxonalarning moddiy-texnika bazasi.<br>7.5. Tibbiyotni moliyalashtirish tizimi. Budjet va nobudjet manbalari. Tarmoqni rivojlantirishda homiylikning roli.<br>7.6. Tibbiyotni rivojlantirishda mavjud muammolar. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish yo'llari. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish konsepsiyasi.<br>7.7. Tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash zaruriyati. Sog'liqni saqlash sohasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish | 2 |
| 8 | **Turizm sohasining iqtisodiyoti** | 8.1. Turizm sohasini rivojlantirish ahamiyati va vazifalari.<br>8.2. Turizmni rivojlantirish yo'llari, marketingi va boshqarish. O'zbekistonda turizm sohasining holati. Turizmga xizmat ko'rsatish sohasi xizmati faoliyatini kuchaytirish yo'nalishlari.<br>8.3. Mehmonxona xo'jaligini rivojlantirish, uni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash zaruriyati. Mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish, ularning assortimentini kuchaytirish, yangi turistik marshrutlarni ochish.<br>8.4. Turizm sohasidagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish. Turizmni rivojlantirishni tartibga solishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisoblash uslubiyati. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 8.5. Turizm sohasi hisob-kitoblarida moliyaviy ko'rsatkichlar: daromadlar, xarajatlar, foyda, rentabellik. | |
| 9 | **Aholini ijtimoiy himoyalash asoslari** | 9.1.Bozor iqtisodiyoti va aholini ijtimoiy himoyalash zaruriyati.<br>9.2. Aholini ijtimoiy himoyalashda chet el davlatlari tajribasi. MDH davlatlarida nafaqa islohotlari.<br>9.3. Ijtimoiy ta'minotning ahamiyati. Ijtimoiy ta'minot belgilari. O'zbekistonda ijtimoiy ta'minotni rivojlantirish konsepsiyasi.<br>9.4. Ijtimoiy himoyani tartibga solishning nazariy asoslari. Daromadlarni qayta taqsimlashning o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi muammolar.<br>9.5. Ijtimoiy himoya qilishni tartibga solishda davlat siyosati va boshqaruvi. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi bosqichlari va ularning xususiyatlari.<br>9.6. Davlat byudjetining ijtimoiy sohaga qilingan xarajatlar tahlili. Xalq moddiy farovonligining barqaror va uzluksiz o'sishini ta'minlash, aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish.<br>9.7. Respublika aholisiga ijtimoiy yordam turlari. Bolali oilalarga ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy ta'minot muassasalarini saqlashga, transport vositalari va nogironlar aravachalarini bepul yoki narxini arzonlarlashtirish, turli imtiyozlar | 2 |
| 10 | **Ijtimoiy ta'minot yo'nalishlari** | 10.1. Pul shaklidagi va turli ko'rinishdagi transferlar. Pulli transferlarini qo'llash zaruriyati. Kambag'allikni bartaraf etish uchun samarali yordam.<br>10.2. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida muhtoj shaxslarga yordam berish tajribasi. Oilada bolalar soni ko'pligi sharoitida maqbul yordamlari. Pul va natura ko'rinishidagi transferlarning ijobiy va salbiy tomonlari.<br>10.3. Pul va natura ko'rinishidagi transferlardan foydalanishning jahon tajribasi. Mahalla tomonidan ijtimoiy yordam, manzilli ijtimoiy himoya mohiyati.<br>10.4. Kam ta'minlangan oilalarni aniqlash. O'zbekistonda kam ta'minlangan aholiga ijtimoiy yordam turning manzilli usulidan mahalliy tizim orqali olib borish samaradorligi | 2 |
| 11 | **Nafaqa ta'minotini takomillashtirish** | 11.1. Nafaqa ta'minoti shart-sharoitlari. Nafaqa tizimining takomillashtirish imkoniyatlari.<br>11.2. Nodavlat nafaqa jamg'armalarini tashkil etishning istiqbollari. Nafaqa to'lash jarayonida pensiya fondining o'rni va davlat boshqaruvining muhimligi.<br>11.3. Nafaqa ta'minotining moliyaviy jihatdan asoslanganligi. Moddiy axborot va kadrlar bazasini yaratish, barcha ijtimoiy hamkorlarning nafaqa ta'minoti tizimini boshqarishdagi ishtiroki.<br>11.4. Ijtimoiy xizmatlar bozorini rivojlantirish. Mos infratuzilmasini tashkil etish (moliyaviy, axborot va xizmat ko'rsatish) | 2 |
| 12 | **Ijtimoiy fondlar va hayriya jamg'armalari** | 12.1. Mamlakat ijtimoiy sug'urtalash tizimini rivojlantirish ahamiyati. Ijtimoiy sug'urtalashni rivojlantirishda nodavlat fondlarining roli, ularni rivojlantirish vazifalari va zaruriyati.<br>12.2. Aholini tabaqalantirish jarayonida ijtimoiy fondlar faoliyatini takomillashtirish.<br>12.3. Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi. Xalqaro ijtimoiy sug'urta amaliyoti. Xayriya jamg'armalari.<br>12.4. Ijtimoiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari huquqlarining kengaytirilishi. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish | 2 |
| | | **JAMI:** | **30** |

**Fan bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi**

| T/r | Ma'ruza mavzulari | Soat |
|---|---|---|
| 1 | "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" fanining mohiyati va xususiyatlari | 2 |
| 2 | Ijtimoiy sohada baholar va subsidiyalar | 4 |
| 3 | Uy-joy kommunal xo'jalik tarmog'i iqtisodiyoti | 2 |
| 4 | Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish | 2 |
| 5 | Ta'lim tizimini tartibga solish. Xalq ta'limini rivojlanishi. | 4 |
| 6 | Oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlanishi | 4 |
| 7 | Tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlanishi va iqtisodiyoti | 2 |
| 8 | Turizm sohasining iqtisodiyoti | 2 |
| 9 | Aholini ijtimoiy himoyalash asoslari | 2 |
| 10 | Ijtimoiy ta'minot yo'nalishlari | 2 |
| 11 | Nafaqa ta'minotini takomillashtirish | 2 |
| 12 | Ijtimoiy fondlar va hayriya jamg'armalari | 2 |
| | ***JAMI MA'RUZA*** | **30** |

**Fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning kalendar tematik rejasi**

| Amaliy mashg'ulotlar mavzulari | | |
|---|---|---|
| **T/r** | **Mavzu nomi** | **Soat** |
| 1 | Davlat dasturilaridan o'rin olgan ijtimoiy soha iqtisodiyoti masalalari tahlili va ularning ijrosi. | 4 |
| 2 | Ijtimoiy sohaning roli, mohiyati va xususiyatlari | 2 |
| 3 | Ijtimoiy sohani boshqarishda davlatning roli | 4 |
| 4 | Ijtimoiy sohada baholar va subsidiyalar. Jamiyat turmush farovonligi nazariyasi va daromadlarning tabaqalanishi | 4 |
| 5 | Uy-joy kommunal xo'jalik tarmog'i iqtisodiyoti | 2 |
| 6 | Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish | 2 |
| 7 | Ta'lim tizimini tartibga solish. O'rta ta'limning rivojlanishi | 4 |
| 8 | Oliy va o'rta maxsus ta'limi rivojlanishi | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| 9 | Tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish | 2 |
| 10 | Turizm soha iqtisodiyoti | 4 |
| 11 | Aholini ijtimoiy himoyalash va ta'minoti | 2 |
| 12 | Ijtimoiy ta'minot | 2 |
| 13 | Nafaqa ta'minoti | 4 |
| 14 | Ijtimoiy sug'urta va xayriya jamg'armalari | 2 |
| 15 | Mehnat bozori va bandlik muammolari | 4 |
| 16 | Insoniy kapital - milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ijtimoiy omillari sifatida | 2 |
| | *JAMI AMALIY MASHG'ULOT* | 46 |

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**Laboratoriya mashg'ulotlari**

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

***Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:***

| № | Mavzular nomi | Soat |
|---|---|---|
| 1. | 2017-2021 yillarda mamlakatni yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasidan o'rin olgan ijtimoiy va iqtisodiy masalalar | 2 |
| 2. | Ishsizlik va uni halok qilish jarayonida ijtimoiy sohaning roli. | 4 |
| 3. | O'zbekiston ijtimoiy sohani moliyalashtirish tizimi. | 4 |
| 4. | Ijtimoiy sohani moliyalashtirish jarayonida davlat va mahalliy budjetlarni roli. | 4 |
| 5. | Ijtimoiy soha va soliqlar. | 4 |
| 6. | O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohani rivojlanish tahlili | 4 |
| 7. | O'zbekiston Respublikasida va viloyatlarida uy-joy, kommunal xo'jalik tarmog'ini rivojlanish tahlili. | 4 |
| 8. | Ijtimoiy sohani rivojlanishda mahalliy hokimiyat organlarining roli va vazifalari. | 2 |
| 9. | Uy-joy, kommunal xo'jalik korxonalarini faoliyatini tartibga solishda mahalla va shirkatlarni roli. | 4 |
| 10. | O'zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlanish tahlili. | 4 |
| 11. | O'zbekistonda tibbiyotni rivojlanish tahlili. | 4 |
| 12. | Respublikaning ijtimoiy soha tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish jarayonining tahlili. | 4 |
| 13. | Respublikada xalq ta'limining rivojlanishi. | 4 |
| 14. | Respublikada Oliy va O'rta maxsus ta'limni rivojlanish tahlili. | 4 |
| 15. | O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanish tahlili. | 4 |
| 16. | O'zbekistonda mehmonxona xo'jaligini rivojlanish tahlili va istiqbollari. | 4 |
| 17. | Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash muhiti va istiqbollari. | 2 |
| 18. | Aholini ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish yo'llari. | 4 |
| 19. | O'zbekiston Respublikasida jahon inqirozi sharoitida ijtimoiy sohani rivojlanish vazifalari. | 4 |
| 20. | Ijtimoiy sohani ayrim tarmoqlarini rivojlantirishda chet el tajribasi. | 2 |
| 21. | Insoniy kapitalni baholash ko'rsatkichlarini aniqlash | 2 |
| | **JAMI** | 74 |

**Dasturning informasion- uslubiy ta'minoti.**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;
- amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, guruhlarda ishlash, klaster, insert, keys stadi, loyiha ishi va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi.

**Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar**

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi. Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish ( test, referat va boshqa usullarda) bajariladi. Fan bo'yicha talalabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

**Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

*Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.*

**Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talalabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi**

**Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

**Asosiy adabiyotlar**


1. Ishmuxamedov A.E., Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Sunnatov M.N. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. T.: TDIU, 2010. – 250 bet.
2. Ishmuxamedov A.E., Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Sunnatov M.N. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. O‘quv uslubiy majmua. T.: TDIU, 2013 y.
3. Под.ред. Т.Д.Бурменко. Сфера услуг: экономика, менежмент, маркетинг. – Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2010 -424 стр.
4. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X., Qurboniyozov I.R. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O`quv qo`llanma. T.: TDIU, 2010. – 268 bet.
5. Восколович Н.А. Экономика платных услуг: учебное пособие. - М.: «Экономика», 2007. -366 стр.
6. Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Qishloq xo`jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. – O`quv qo`llanma. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2012, 332 b.


**Qo‘shimcha adabiyotlar**


1. Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Muxamedjonova G.YA “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti”, - Uslubiy qo‘llanma. - T.: TDIU, 2010. -160 bet.
2. Каланова М.З. “Местный рынок труда: изучение, оценка, предложения по улучшению использования трудового потенциала” Кейс–технология. Учебное пособие. Т.: ТГЭУ, 2010. - 24 стр.
3. Кукушина Б.С. Социальная защита населения. Учебное пособие. М.: ИНФРАМ, 2007. -321 с.
4. Жукова М.А. Менеджмент в туристическом бизнесе. Учебное пособие - М.: КНО - РУС, 2005. - 192 с.
5. Филипповский Е.Е., Шмарова Л.В. Экономика и организация гостиничного хозяйства. - М.: ФиС, 2005. -176 с.
6. R.X.Ergashev, SH.A.Yuldosheva. Uy-joy kommunal xo’jaliklarini rivojlantirish yo’nalishlari. – Monografiya. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017 yil, 120 b.
7. Xamrayeva S.N. Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. – Monografiya. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017 – 256 b.


Internet saytlari


1. http:// www.lex.uz
2. http.//www.mineconomi.uz.
3. http://www.mf.uz
4. http://www.stat.uz
5. http://www. soliq.uz
6. http://www.cbu.uz
7. http://www.wordbank.org.
8. http://www.ebrd.org.
9. http://www.imf.org